

XII.KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat

xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 37 613 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 26 194 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 69,6 % ni tashkil qildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (31,8 %), Chust (8,1 %), Pop (6,8 %), Chortoq (6,7 %), Uchqo'rg'on (6,4 %), Kosonsoy (6,2 %) va Uychi (6,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(2025- yilning 1- oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	37 613	100,0	26 194	100,0
Namangansh.	11 964	31,8	8 199	31,3
Mingbuloq	1 939	5,1	1 467	5,6
Kosonsoy	2 324	6,2	1 496	5,7
Namangan t.	2 197	5,8	1 516	5,8
Norin	1 950	5,2	1 425	5,4
Pop	2 544	6,8	1 935	7,4
To'raqo'rg'on	2 194	5,8	1 623	6,2
Uychi	2 292	6,1	1 504	5,8
Uchqo'rg'on	2 412	6,4	1 575	6,0
Chortoq	2 518	6,7	1 672	6,4
Chust	3 030	8,1	2 233	8,5
Yangiqo'rg'on	2 249	6,0	1 549	5,9

Ro'yxatdan o'tgan sub'yektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da
(2025-yilning 1-oktabr holatiga)



- | | | | |
|----------------|-------------|-----------------|-----------------|
| ■ Namangan sh. | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy | ■ Namangan t. |
| ■ Norin | ■ Pop | ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi |
| ■ Uchqo'rg'on | ■ Chortoq | ■ Chust | ■ Yangiqo'rg'on |


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,5 %)), sanoat (17,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (7,7 %) hamda qurilish (6,0 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

(2025- yilning 1- oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	32 991	100,0	21 814	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 876	8,7	1 660	7,6
sanoat	6 688	20,3	4 177	19,1
qurilish	2 235	6,8	1 329	6,1
savdo	12 988	39,4	8 826	40,5
tashish va saqlash	1 328	4,0	961	4,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 865	5,6	1 323	6,1
axborot va aloqa	519	1,6	343	1,6
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	808	2,4	678	3,1
boshqa turlari	3 684	11,2	2 517	11,5

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni

(2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 1 243 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 306 taga yoki 80,2 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 889 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 123 taga yoki 87,8 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 72 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100 taga yoki 41,9 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining xududlar kesimida soni

(2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 26 240 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 311 taga yoki 88,8 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 757 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 76 taga yoki 99,6 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 869 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 98,8 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni
(2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 5 975 ta (jamidagi ulushi 33,7 %), Chortoq 1 264 ta (7,1 %), Pop 1 259 ta (7,1 %), Chust 1 194 ta (6,7 %), Uychi 1 071 ta (6,0 %), Yangiqo'rg'on 1 066 ta (6,0 %), Uchqo'rg'on 1 037 ta (5,8 %), Kosonsoy 1 020 ta (5,8 %), Norin 1 003 ta (5,6 %), Namangan 989 ta (5,6 %), To'raqo'rg'on 952 ta (5,4 % ni xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 927 ta (5,2 %) tumani xissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonasi va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda



**Ro'yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2025- yilning 1- oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	37 613	100,0	26 194	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 901	7,7	1 685	6,4
sanoat	6 694	17,8	4 183	16,0
qurilish	2 251	6,0	1 344	5,1
savdo	12 993	34,5	8 828	33,7
tashish va saqlash	1 329	3,5	962	3,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 867	5,0	1 325	5,1
axborot va aloqa	552	1,5	375	1,4
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 049	2,8	913	3,5
boshqa turlari	7 977	21,2	6 579	25,1

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da (2025- yilning 1-oktabr holatiga)





Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 69,6 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 30,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda 6,7 foizga kamaygan.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da

01.10.2024- yil

01.10.2025- yil




Faoliyatsizlar

Faoliyat ko'rsatayotganlar

2025- yilning 1- oktabr holatiga 21 814 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2 977 ta, oilaviy korxonalar – 889 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17 757 tani va 191 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi
sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha
taqsimlanishi, birlikda



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 3 408 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (972 ta), Mingbuloq (271 ta), Uchqo'rg'on (255 ta), Chust (245 ta), Chortoq (244 ta), Kosonsoy (242 ta), Pop (230 ta), Norin (224 ta) va Yangiqo'rg'on (215 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam esa, Namangan (156 ta), To'raqo'rg'on (175 ta) va Uychi (179 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va
tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda**
(2025-yilning 1-oktabr holatiga)




**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(2025-yilning 1-oktabr holatiga)




Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish boʻyicha faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(2025-yilning 1-oktabr holatiga)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumot, birlikda




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (2025-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 38,0 %, sanoatda 14,3 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12,9 %, qurilishda 3,9 % ni tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (2025-yilning yanvar-sentabr oylarida)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

40,3 %



Sanoat

15,3 %



Savdo



*Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar*

12,5 %



*Qishloq, o'rmon va
baliqchilik
xo'jaligi*

25,0 %



*Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar*

4,2 %



Boshqa turlar

2025- yilning 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 21 650 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024 yilning mos davriga nisbatan 97,0 % tashkil qilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 6 904 tasi (jami sub'ektlarning 31,9 %) Namangan shahriga, 1 869 tasi (8,6 %) Chust, 1 562 tasi (7,2 %) Pop, 1 378 tasi (6,4 %) Chortoq, 1 342 tasi (6,2 %) To'raqo'rg'on, 1 284 tasi (5,9 %) Uchqo'rg'on, 1 267 tasi (5,8 %) Namangan tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 163 tasi (5,4 %) Norin, 1 205 tasi (5,6 %) Mingbuloq, 1 236 tasi (5,7 %) Yangiqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
hududlar bo'yicha soni

	2024- yilning 1- oktabr holatiga		2025- yilning 1- oktabr holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	22 324	100,0	21 650	100,0
Namangan sh.	6 907	30,9	6 904	31,9
Mingbuloq	1 099	4,9	1 205	5,6
Kosonsoy	1 311	5,9	1 204	5,6
Namangan t.	1 406	6,3	1 267	5,8
Norin	1 174	5,3	1 163	5,4
Pop	1 665	7,5	1 562	7,2
To'raqo'rg'on	1 427	6,4	1 342	6,2
Uychi	1 273	5,7	1 236	5,7
Uchqo'rg'on	1 499	6,7	1 284	5,9
Chortoq	1 441	6,5	1 378	6,4
Chust	1 951	8,7	1 869	8,6
Yangiqo'rg'on	1 171	5,2	1 236	5,7

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 21 650 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 8 799 tasi (40,7 %) - savdoda, 4 121 tasi (19,0 %) - sanoatda, 1 653 tasi (7,6 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 322 tasi (6,1 %) - qurilishda, 1 318 tasi (6,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 957 tasi (4,4 %) - tashish va saqlashda, 673 tasi (3,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 343 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 464 tasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(2025- yilning 1- oktabr holatiga)



2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami 3 138 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,8 foizni tashkil etgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (923 ta), Mingbuloq (258 ta), Uchqo'rg'on (240 ta), Kosonsoy (219 ta), Chust (212 ta), Chortoq (213 ta), Norin (207 ta), Pop (204 ta) va Yangiqo'rg'on (189 ta) tumanlariga eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan (141 ta), To'raqo'rg'on (161 ta) va Uychi (171 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

**2025- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (1 296 ta), sanoatda (487 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (438 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (219 ta) hamda qurilishda (132 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (88 ta), tashish va saqlashda (86 ta), axborot va aloqada (79 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2025- yil 1- oktabr holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 34,0 % ni (11 142 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 240 taga kamaygan.


Hisobot davrida 8 174 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 787 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 9,6 %) ixtiyoriy tugatilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da (2025- yil yanvar-sentabr)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2025- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 245 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31 taga yoki 120,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 98 tasi qo'shma korxonalar, 147 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2025-yilning 1-oktabr holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2025-yilning 1-oktabr holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 110 ta (44,9 %), Pop 18 ta (7,4 %), Uychi va Chust 17 tadan (6,9 % dan), Yangiqo'rg'on 16 ta (6,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Chortoq 4 ta (1,6 %), Norin 7 ta (2,9 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi
(2025- yilning 1- oktabr holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
Viloyat jami	245	100,0
Namangan sh.	110	44,9
Mingbuloq	8	3,3
Kosonsoy	14	5,7
Namangan t.	11	4,5
Norin	7	2,9
Pop	18	7,4
To'raqo'rg'on	15	6,1
Uychi	17	6,9
Uchqo'rg'on	8	3,3
Chortoq	4	1,6
Chust	17	6,9
Yangiqo'rg'on	16	6,5


Faoliyat ko'rsatayotgan 245 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 94 tasi (38,3 %) sanoat, 64 ta (26,1 %) savdo, 21 ta (8,6 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 16 tasi (6,5 %) qurilish, 7 tasi (2,9 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 7 tasi (2,9 %) tashish va saqlashda, 5 tasi (2,0 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda 24 tasi (9,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**
(2025- yilning 1- oktabr holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	245	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	8,6
sanoat	94	38,3
qurilish	16	6,5
savdo	64	26,1
tashish va saqlash	7	2,9
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	2,0
axborot va aloqa	7	2,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	2,9
boshqa turlari	24	9,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da
(2025- yilning 1- oktabr holatiga)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 49 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8 taga yoki 19,5 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 18 ta, Turkiya – 8 ta, Rossiya Federatsiyasi – 6 ta, Janubiy Koreya – 3 ta, Eron va Niderlandiya qirolligi – 2 tadan, Germaniya, Hindiston, Qozog'iston, Tojikiston, Pokiston Islom Respublikasi, Buyuk Lyuksemburg Gertsogligi, Shvetsiya Qirolligi, Ukraina, Amerika qo'shma shtatlari – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 49 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (28 ta), Uchqo'rg'on (4 ta), Chust, Namangan (3 tadan), Pop, To'raqo'rg'on, Uychi va Yangiqo'rg'on (2 tadan), Kosonsoy (1 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Norin, Chortoq tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
hududlar kesimidagi soni va ulushi**
(2025- yil yanvar- sentabr)


	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	49	100,0
Namangan sh.	28	57,1
Mingbuloq	2	4,1
Kosonsoy	1	2,0
Namangan t.	3	6,1
Norin	-	-
Pop	2	4,1
To‘raqo‘rg‘on	2	4,1
Uychi	2	4,1
Uchqo‘rg‘on	4	8,2
Chortoq	-	-
Chust	3	6,1
Yangiqo‘rg‘on	2	4,1

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan savdoda 19 ta, sanoatda 15 ta, qurilish 5 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 3 ta, yashash va ovqatlanish, axborot va aloqa, boshqa sohalarida 2 tadan, tashish va saqlashda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(2025- yil yanvar- sentabr)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2025- yilning 1- oktabr holatiga 1 243 tani tashkil etib, ulardan 889 tasi yoki 71,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 6,2 % ga kapayganligini ta'kidlash mumkin.